

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QISHLOQ
XO‘JALIGINI ELEKTRLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH
FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QISHLOQ XO‘JALIGINI ELEKTRLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Elektr mashinalari va transformatorlar fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish

Qishloq xo‘jaligida elektr ta‘minoti;

1. Elektr ta‘minoti haqida umumiy ma‘lumotlar.
2. Elektr ta‘minotining maqsadi va vazifalari.
3. Tashqi tarmoqlarning tuzilishi.

Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish;

1. Avtomatlashtirish tizimlarini sozlash.
2. Elektr texnik materiallarining klassifikatsiyasi.
3. Elektr sxema turlari va o‘qilish qoidalar.

Qishloq xo‘jalik texnikalarining elektr jihozlari va elektronikasi.

1. Elektr simlar va kabellarning turlari.
2. Transformator turlari va ularning montaji.
3. Elektr motorlar turlari va montaji.
4. Elektr yoritgich va nurlartgich qurilmalari va ularning montaji.
5. Elektr isitgich va elektr payvandlash qurilmalar montaji.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Elektr ta'minoti haqida umumiy ma'lumotlar	Elektroenergetik kattaliklar haqidagi ma'lumotlar. Elektroenergetik tizimlar va tuman elektr stansiyalari.	3 ta
2	Elektr ta'minotining maqsadi va vazifalari.	Elektr energiyasining sifati. Elektr ta'minotining ishonchliligi va uni oshirish vositalari. Elektr energiyasi isrofini kamaytirish va undan samarali foydalanish.	5 ta
3	Tashqi tarmoqlarning tuzilishi.	Elektr o'tkazgich simlar va kabellar. Havo liniyalarining izolyatorlari. Havo liniyalarining sim ustunlari. Elektr o'tkazgichlarni binoga kiritish. Elektr o'tkazgichlarning aktiv va induktiv qarshiliklari.	7 ta
4	Avtomatlashtirish tizimlarini sozlash	Sozlash ishlarini tashkil etish. Nazorat o'lchov asboblarning metrologik xizmati.	2 ta
5	Elektr texnik materiallari-ning klassifikatsiyasi.	Elektr texnika materiallari va klassifikatsiyasi. Tabiiy dielektrik materiallar.	2 ta
6	Elektr sxema turlari va o'qilish qoidalar.	Elektr sxema turlari va o'qilish qoidalar. Sxemalarning bir-biridan farqi.	2 ta
7	Elektr simlar va kabellarning turlari va ularning montaji	O'tkazgich simlar va kabellar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. O'tkazgichlarni o'rnatish usullari. Elektr sim va kabellarni montaji.	3 ta
8	Transformator turlari va ularning montaji.	Transformatorning turlari va umumiy ma'lumotlar. Transformatorlarning umumiy kurinish va ulanish sxemalari.	4 ta
9	Elektr motorlar turlari va montaji.	Elektr motorlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Ishlash prinsipi bo'yicha motorlar turlari. Elektr motorlarning montaji va qo'yiladigan talablar.	5 ta
10	Elektr yoritgich va nurlartgich qurilmalari va ularning montaji.	Elektr yoritgich va nurlatgichlar. Cho'g'lanma lampalar. Gazrazryadli lampalar. Yuqori va o'ta yuqori bosimli gazrazryadli lampalar.	4 ta

11	Elektr isitgich va elektr payvandlash qurilmalar montaji.	Qarshilik vositasida qizituvchi elektr pechlar, ishlash prinsipi va montaj. Payvandlash transformatorlari, kurilmalarining montaji.	3 ta
-----------	---	---	------

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish,

imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Toshpulotov N.T. Suv xo‘jaligida elektr ta‘minoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: TIQXMMI, 2019. – 250 b.
2. Ismoilov M.I., Raxmatov A.D. Avtomatik tizimlarning elektr qurilmalarning montaji, sozlash va ekspluatatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TIMI, 2009. – 196 b.
3. Xaliknazazarov U.A., Turdibaev A.A., Nuralieva N.A. Elektr texnik materiallar va elektr uskunalarning montaji. O‘quv qo‘llanma. – T.: “TIQXMMI” MTU, 2023. – 287 b.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*